

**ВАЗОРАТИ МАОРИФ ВА ИЛМИ ҶУМҲУРИИ ТОҶИКИСТОН
ДОНИШКАДАИ ОМУЗГОРИИ
ТОҶИКИСТОН ДАР ШАҲРИ ПАНЧАКЕНТ**



**ПАЁМИ ДОНИШКАДА
ТАФАККУРИ ТАЪРИХ
АНВОРИ ИЛМ**

№2-3 - 2025

**ВЕСТНИК ИНСТИТУТА
ПОЗНАНИЕ ИСТОРИИ
СВЕТОЧ НАУКИ**

№2-3- 2025

**BULLETIN OF THE INSTITUTE
KNOWLEDGE OF HISTORY
LIGHT OF SCIENCE**

№2-3 - 2025

Нашри махсус/Специальное издание/Special edition



**Панҷакент-2025
[https// Dotpanj.tj](https://Dotpanj.tj)**

**ВАЗОРАТИ МАОРИФ ВА ИЛМИ ҶУМҲУРИИ ТОҶИКИСТОН
ДОНИШКАДАИ ОМУЌЗОРИИ
ТОҶИКИСТОН ДАР ШАҲРИ ПАНҶАКЕНТ**

**ПАЁМИ ДОНИШКАДА
ТАФАККУРИ ТАЪРИХ
АНВОРИ ИЛМ**

№ 2-3- 2025

**ВЕСТНИК ИНСТИТУТА
ПОЗНАНИЕ ИСТОРИИ
СВЕТЛОЧ НАУКИ**

№2-3 - 2025

**BULLETIN OF THE INSTITUTE
KNOWLEDGE OF HISTORY
LIGHT OF SCIENCE**

№2-3 - 2025

**Нашри махсус/Специальное издание/Special edition
МАВОДИ**

**Анҷумани илмӣ-амалии байналмиллалии “Хонишҳои VII – уми Артуҷ” баҳшида ба “Масоили
мубрами илмҳои педагогӣ, иҷтимоӣ-гуманитарӣ ва фанҳои риёзӣ ва дақиқ дар замони муосир” (Эҳёи
Тоҷикистон), 14-16 июли соли 2025 дар Донишқадаи омӯзгории Тоҷикистон дар шаҳри Панҷакент**



**-Панҷакент-2025
[https:// Dotpanj.tj](https://Dotpanj.tj)**

МУАССИС:

Донишкадаи омӯзгорӣ
Тоҷикистон дар ш.Панҷакент, Ректор Ансорӣ
М.Қ.

ПАЁМИ ДОНИШКАДА/ ТАФАККУРИ
ТАЪРИХ/ АНВОРИ ИЛМ. №2-3 – 2025. – 700 с.
ВЕСТНИК ИНСТИТУТА/ ПОЗНАНИЕ
ИСТОРИИ/ СВЕТЛОЧ НАУКИ. №2-3 – 2025. – 700
с.

BULLETIN OF THE INSTITUTE/
KNOWLEDGE OF HISTORY /LIGHT OF
SCIENCE. №2-3 – 2025. – 700 s.

Нашри махсус/Специальное издание/Special
editio

Баъзе фикр ва хулосаҳои дар маҷалла омада бо
нуқтаи назари таҳририят созор наомаданаш
мумкин аст. Барои дурустии иқтибос, ҳавола,
пайнавиштҳою дараҷаи илмӣ, услуб ва баёни
мақолаҳо муаллифҳо масъуланд.

Мнение редколлегии не всегда совпадает с
мнением авторов. За достоверность цитат и ссылок,
научный уровень, стилистику статей ответственны
авторы.

The opinion of the editorial board does not always
coincide with the opinion of the authors.
The authors are responsible for the reliability of Citations and
references, the scientific level, and the style of the articles.

Дар вазорати фарҳанги Ҷумҳурии Тоҷикистон аз
10.04.2023 ба қайд гирифта шудааст (№1283/МҚ-97,
№284/МҚ-97, №285/МҚ-97)

Сардабир:

Воҳидов Шодмон, д.и.т., профессор
Муҳаррири масъул:
Шарифова Гулшарӣ, н.и.филол, дотсент

Котиби масъули шумора:

Тулқин Расулов (Донишгоҳи давлатии Бухоро)

Манзил:

735500, Ҷумҳурии Тоҷикистон, вилояти
Сӯғд, ш.Панҷакент, хиёбони Рӯдакӣ – 106. t-
mail: ramir555@inbox.ru
735500, Ҷумҳурии Тоҷикистон,
Вилояти Сӯғд, ш. Панҷакент, хиёбони Рӯдакӣ
106. Донишкадаи омӯзгорӣ Тоҷикистон дар
ш.Панҷакент.
ИНН-60001265; МФО – 350101626
Кор.счёт-20402972316264
Расч.счёт – 20406840100006234000
Амонатбанк Донишкадаи омӯзгорӣ
Тоҷикистон дар ш.Панҷакент,
Тел: (+992) 92 768 16 66; (+992) 93 793 71 23

Веб-сайт: www.dotpanj.tj E-mail: tou@bk.ru

Ректор: Ансорӣ Муаззамхон Қудратзода

**ҲАЙАТИ ТАҲРИРӢ/РЕДАКЦИОННАЯ
КОЛЛЕГИЯ:**

Раҳмонзода А., академик, Сафири Мухтор ва
Фавқулодаи Ҷумҳурии Тоҷикистон дар Ҷумҳурии
Ўзбекистон

Азамат З., академики АФ Ҷумҳурии Ўзбекистон

Аминов Б., д.ф.т., профессор (Ўзбекистон)

Бадриддинов С., н.и.т. дотсент (Ўзбекистон)

Бекова Н.Қ. д.ф.филол., профессор (Ўзбекистон)

Боқӣ Набичон, нависанда (Ўзбекистон)

Ғаффоров Ш.С. д.ф.т., профессор (Ўзбекистон)

Ғойибов Б.С., д.ф.т., профессор (Ўзбекистон)

Джумаев М.И., н.ф.пед., профессор (Ўзбекистон)

Жумаев У.С., д.ф.равон. (Ўзбекистон)

Замонов А. Т., д.ф.т., профессор (Ўзбекистон)

Исакова М.С. д.ф.т., профессор (Ўзбекистон)

Қобулов Э.О., д.ф.т., профессор (Ўзбекистон)

Қурбонов Ш. Ф. н.и.бостон., профессор (Тоҷикистон)

Лурье П.Б., д.ф.филол. (Россия)

Мирзаев Н. М., д.ф.т., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаева Н.Қ. н.ф.т., дотсент (Ўзбекистон)

Мирзоюнус М.М.д.ф.ф., профессор (Тоҷикистон)

Муминов А.Қ., т.ф.д.профессор (Туркия)

Наврӯзова Г.Н. д.ф.фал., профессор (Ўзбекистон)

Наққош И., нависанда ва шоир (Тоҷикистон)

Намозов Б.Б., д.ф.т., (Ўзбекистон)

Нормуродова Г.Б. д.ф.т., профессор (Ўзбекистон)

Очилов А. Т., д.ф.т., (Ўзбекистон)

Пулатов М.Э., д.ф. иқт., профессор (Ўзбекистон)

Расулов Т.Х., Dsc аз фанни физика -математика,
профессор (Ўзбекистон)

Раҳимов Н., д.ф.т., профессор (Тоҷикистон)

Резван Е., д.ф.т.профессор. (Россия)

Саидов И.М., д.ф.т.профессор (Ўзбекистон)

Сангирова Д.Қ. н.ф.т. дотсент (Ўзбекистон)

Сафаров Т. Т., ф.н.дотсент

Ҷумаев Р.Ғ., Dsc аз фанни педагогика, профессор
(Ўзбекистон)

Ражабов Т.И., д.ф.пед, профессор (Ўзбекистон)

Рефаат Ҳусейн, доктори фанҳои филологӣ, профессор
(Миср)

Шодиева Ш., PhD аз фанни таърих, дотсент (Ўзбекистон)

Эргашев Ж.Ю. PhD аз фанни таърих, дотсент
(Ўзбекистон)

Эркинов А. С., д.ф.филол., профессор (Ўзбекистон)

Эркинова Н.Э. PhD аз фанни филология (Ўзбекистон)

Эрназаров Ф.Н., д.ф.т. профессор (Ўзбекистон)

Эшов Б.Дж, д.ф.т., профессор (Ўзбекистон)

Эшонқулов И., н.ф.ф., дотсент (Ўзбекистон)

Нашри махсус

Специальный выпуск

Special edition

© ДОТП, “Анвори илм”, соли 2025.



Abdulxayrov Dilshod Pulatovich
Buxoro davlat universiteti
Nemis filologiyasi kafedrasida o'qituvchisi
dilshod_ab@mail.ru
Baliyeva Nigina Axror qizi
Buxoro davlat universiteti
Xorijiy tillar fakulteti talabasi
baliyevanigina@gmail.com

O'ZBEKISTONDA CHET TILINI BILISH DARAJASINI BAHOLASH ME'ZONLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda chet tillarini bilish darajasini baholash me'zonlari va ularning ahamiyati yoritilgan. Yurtimizda chet tillarini milliy va xalqaro baholash dasturlari va standartlari, shu jumladan nemis tilini o'qitishdagi Goethe-Zertifikat, TestDaF, ÖSD, Telc kabi xalqaro dasturlar va standartlarning o'ziga xosliklari va ularni qo'llash jarayonida qay darajada samarali bo'lishi, shuningdek milliy darajada Davlat test markazi tomonidan sertifikatlash imtihonlari ta'lim sifatini qay darajada oshirishi o'rganildi.

Kalit so'zlar: baholash me'zonlari, xalqarobaholash dasturlari va standartlari, sertifikatlash, xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish, til bilish darajasi, xalqaro muloqot.

Аннотация. В данной статье рассматриваются критерии оценки уровня владения иностранными языками в Узбекистане и их значение. Изучены национальные и международные программы и стандарты оценки знаний иностранных языков в нашей стране, в том числе особенности международных программ и стандартов, таких как Goethe-Zertifikat, TestDaF, ÖSD, Telc в обучении немецкому языку, а также их эффективность в процессе применения. Кроме того, проанализирована роль сертификационных экзаменов, проводимых Государственным тестовым центром на национальном уровне, в повышении качества образования.

Ключевые слова: Критерии оценки, Международные программы и стандарты оценки, Сертификация, Популяризация изучения иностранных языков, Уровень владения языком, Международное общение.

Abstract. This article explores the criteria for assessing foreign language proficiency in Uzbekistan and their significance. It examines national and international language assessment programs and standards in our country, including the unique features of international programs and standards such as Goethe-Zertifikat, TestDaF, ÖSD, and Telc in German language education, as well as their effectiveness in practical application. Additionally, the study analyzes the role of certification exams conducted by the State Testing Center at the national level in improving the quality of education.

Keywords: Assessment criteria, International assessment programs and standards, Certification, Popularization of learning foreign languages, Language proficiency level, International communication.

Bugungi kunda chet tillarini bilish zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylangan. Xalqaro muloqot, ta'lim, ilm-fan va ishbilarmonlik sohalarida muvaffaqiyatga erishish uchun chet tilini bilish katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, har bir mamlakat o'z ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitish va ularni baholash tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Globalizatsiya sharoitida chet tillarini o'rganish va bilish har qanday sohada muvaffaqiyatga erishishning muhim omillaridan biriga aylandi. Xususan, O'zbekistonda chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqish yildan yilga ortib, ushbu sohani baholash va sertifikatlash

tizimi takomillashtirib borilmoqda. Til bilish darajasini aniqlash, ta'lim sifatini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash va xalqaro standartlarga mos keladigan mutaxassislarni shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 19-maydagi qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi tashkil etildi. Ushbu agentlik davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va davlat ta'lim muassasalarining xorijiy tillarni o'qitishni ommalashtirish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtiradi. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish, bu boradagi faoliyatni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillariga o'qitish tizimini takomillashtirish muhim bosqichga ko'tarildi. Chet tilini bilish darajasini baholash jarayoni xalqaro standartlarga asoslangan holda shakllantirilgan bo'lib, Yevropa umumiy tillar doirasidagi tavsiyalar va milliy sertifikat tizimiasosida amalga oshiriladi. Bu tizim ta'lim muassasalari, davlat idoralari va ish beruvchilar uchun chet tilini bilish darajasini aniqlashning ishonchli mezon sifatida xizmat qiladi.

O'zbekistonda chet tillarini o'rganish so'nggi yillarda davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayon ta'lim tizimida tub o'zgarishlarga olib keldi va chet tillarini o'qitish sifati oshirilmoqda. Davlat tomonidan bu jarayonni qo'llab-quvvatlash uchun turli qarorlar qabul qilinib, maktablardan boshlab universitetlarga ta'lim tizimiga chuqur tatbiq etildi. Maktablarda ingliz tili 1-sinfidan o'qitila boshladi, oliy ta'lim muassasalarida esa nafaqat ingliz, balki nemis, fransuz, koreys va xitoy tillarini ham chuqur o'rganish imkoniyatlari kengaytirildi. So'nggi yillarda xalqaro sertifikatlar muhim ahamiyat kasb etib, talabalar va o'qituvchilar IELTS, TOEFL, CEFR kabi imtihonlarni topshirishga intilmoqda. Bunday sertifikatlar nafaqat universitetga kirishda, balki ishga joylashishda ham katta ustunlik beradi. Shu bilan birga, chet tillari o'qituvchilarining malakasini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xorijdan mutaxassislar jalb qilinib, xalqaro dasturlar orqali pedagoglar tayyorlanmoqda. O'zbekiston yoshlari orasida chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Ko'plab xususiy til markazlari ochilib, onlayn platformalar ham mashhur bo'lib ketdi. Bu jarayon chet elda ta'lim olish yoki xorijiy kompaniyalarda ishlashni orzu qilayotgan yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Davlat ham ushbu yo'nalishni qo'llab-quvvatlab, grantlar va stipendiyalar ajratmoqda. Umuman olganda, hozirgi kunda O'zbekistonda chet tilini bilish nafaqat zamonaviy talab, balki shaxsiy va professional rivojlanish uchun muhim omilga aylanib bormoqda. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim, fan sohalari rivojlanishini va baholashni monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or va tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-fevraldagi 73-sonli qarori "Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida" deb nomlanadi. Ushbu qaror chet tilini bilish darajasini baholash va tasdiqlash jarayonlarini tartibga soluvchi reglamentni tasdiqlashga qaratilgan. Qarorga muvofiq, chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamenti tasdiqlandi. Ushbu reglamentda chet tilini bilish darajasini baholash va malaka sertifikatini berish tartibi belgilangan. Shuningdek, qarorda vakolatli organ sifatida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi belgilangan. Mazkur qaror bilan tasdiqlangan reglament chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonini tartibga soladi va ushbu xizmatlardan foydalanish tartibini



belgilaydi. Shu asnoda O'zbekistonda Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini berdi. 2021-yildan boshlab O'zbekistonda chet tillarini bilish darajasini baholash bo'yicha Milliy sertifikat tizimi (Chet tilini bilish darajasini aniqlash test sinovi) joriy etildi. Ushbu sertifikat A1, A2, B1, B2, C1 va C2 darajalarida beriladi va davlat tashkilotlarida hamda xalqaro miqyosda tan olinishi rejalashtirilgan. Sertifikatlarni olish uchun test sinovlari turli markazlarda, jumladan, Davlat test markazi (DTM) va xalqaro imtihon markazlarida tashkil etiladi.

Milliy baholash tizimi chet tilini bilish darajasini aniqlash va baholash uchun ishlatiladigan standart me'yorlar majmuasidir. Ushbu tizim turli mamlakatlarda farqlanishi mumkin, ammo ko'pincha xalqaro mezonlarga, xususan, CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) ga asoslanadi. CEFR- Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan va butun dunyo bo'ylab qo'llaniladigan til bilish darajasini baholash tizimidir. Bu tizim barcha Yevropa tillari, jumladan, nemis tili uchun ham qo'llaniladi. CEFR til o'rganish jarayonini strukturalashtirish va o'quvchilarning qobiliyatlarini aniqlashga yordam beradi. U olti darajadan iborat bo'lib, har biri til egallash darajasining aniq mezonlari va ko'nikmalarini belgilaydi.



Unda tashqari nemis tilini xalqaro me'zonlar asosida baholashga: Goethe-Zertifikat, TestDaF, ÖSD, Telc kabi dasturlarni keltirish mumkin.

Goethe-Zertifikat – bu Goethe-Institut tomonidan beriladigan xalqaro tan olingan nemis tili sertifikati bo'lib, uCEFR (Common European Framework of Reference for Languages) darajalariga asoslangan. Ushbu sertifikat butun dunyoda qabul qilinadi va Germaniyada o'qish, ishlash yoki immigratsiya uchun zarur bo'lishi mumkin. Goethe-Zertifikatining A1, A2, B1, B2, C1, C2 kabi 6 darajasi mavjud. Imtihoni tarkibi:

1. Tinglab tushunish (Hören)
2. O'qib tushunish (Lesen)
3. Yozma nutq (Schreiben)
4. Og'zaki nutq (Sprechen) kabi qismlardan iborat.

TestDaF (Test Deutsch als Fremdsprache) – chet ellik talabalar va mutaxassislar uchun mo'ljallangan xalqaro nemis tili imtihoni bo'lib, u akademik maqsadlarda til bilish darajasini baholash uchun ishlatiladi. TestDaF sertifikatini Germaniyadagi ko'plab universitetlar va oliy ta'lim muassasalari tomonidan qabul qilinadi. TestDaF natijalari uchta darajada baholanadi:

1. TDN 3 (TestDaF-Niveaustufe 3) → B2 darajasi
2. TDN 4 (TestDaF-Niveaustufe 4) → B2 – C1 darajalari
3. TDN 5 (TestDaF-Niveaustufe 5) → C1 darajasi

TestDaF imtihoni tarkibi ham Goethe-Zertifikat kabi 4 qismdan iborat.

ÖSD (Österreichisches Sprachdiplom Deutsch) – bu Avstriya davlatining rasmiy nemis tili sertifikatini bo'lib, xalqaro darajada tan olinadi. Bu imtihon Germaniya, Avstriya va Shveysariyada ta'lim olish yoki ishlash uchun zarur bo'lishi mumkin. ÖSD imtihoni CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) darajalariga mos keladi va barcha darajalari (A1 – C2) mavjud. ÖSD sertifikatini Germaniya va Avstriya fuqaroligini olish uchun ham qabul qilinadi.

Telc (The European Language Certificates) – bu Yevropa til sertifikatlari bo'lib, nemis, ingliz, fransuz, ispan va boshqa tillar uchun xalqaro miqyosda tan olingan baholash tizimidir. Telc Deutsch imtihoni Germaniya, Avstriya va Shveysariyada ishlash, o'qish yoki immigratsiya qilish uchun talab qilinishi mumkin. Telc GmbH kompaniyasi ushbu imtihonlarni ishlab chiqadi va nemis tili bo'yicha imtihonlar CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) ga mos keladi. Telc imtihoning barcha darajalari (A1 - C2) mavjud. Imtihon ikki asosiy bo'limdan iborat:

1. Yozma qism (Schriftliche Prüfung)
Tinglab tushunish (Hörverstehen)
O'qib tushunish (Leseverstehen)
Yozma nutq (Schreiben)
2. Og'zaki qism (Mündliche Prüfung)

O'zbekistonda nafaqat Milliy baholash tizimi balki, xalqaro baholash dasturlari va standartlari ham keng rivojlanmoqda. Ayniqsa, chet tilini bilish sertifikatiga ega bo'lgan shaxslarga ko'plab imkoniyatlar mavjud. Misol uchun: O'zbekistonda chet tillarini bilish darajasi yuqori bo'lgan mutaxassislariga rag'bat sifatida ustama to'lovlar, xorijiy grant va stipendiyalar hamda ishga qabul qilishda imtiyozlar beriladi. Bu esa til o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda keyinchalik til o'rganish va baholash jarayonlari yanada takomillashishi, xalqaro sertifikatlar va milliy tizim o'rtasidagi uyg'unlik mustahkamlanishi kutilmoqda. Bu esa yoshlarning xorijda ta'lim olishi, xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi va mamlakatning global maydondagi mavqeyini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-fevraldagi 73-sonli "Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
3. John Trim, Brian North, Daniel Coste, Joseph Sheils Gemeinsamer europäischer Referenzrahmen für Sprachen. Linz Austria Landesverlag
4. Abdulxayrov D. DIE ROLLE DER KOMMUNIKATIVEN FERTIGKEITEN DES REISELEITERS IN DER STADTFÜHRUNG //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2024. – Т. 47. – №. 47.

5. Abdulkayrov D. DIE SEMANTIK DER ZEITFORM-GAN EKAN IM USBEKISCHEN //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 5. – С. 205-209.

Elektron manbalar:

1. <http://lex.uz>
2. my.gov.uz
3. www.goethe.de
4. www.testdaf.de
5. www.osd.at
6. www.telc.net
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/chet-tillarni-onlayn-tarzda-oqitishda-xalqaro-baholash-dasturlari-va-standartlarining-oziga-xosliklari>

Abdurayimova Madina To'raboy qizi

GulDu magistri, Guliston sh.

madinabozorova611@gmail.com

998946259702

**YANGI O'ZBEKISTONDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDAGI
ISLOHATLAR**

**РЕФОРМЫ В СФЕРЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СПОРТА В
НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ**

**REFORMS IN THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS IN
NEW UZBEKISTAN**

Annotatsiya. Mazkur maqolada 2016-2024-yillarda O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasida amalga oshirilgan islohotlar, ushbu yo'nalishda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ularda belgilangan ustuvor yo'nalishlar va vazifalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, sport, salohiyat, mutaxassis, trenerlar, sportchilar, konsepsiya, sovrun, ta'lim, ilm, kompetensiya.

Аннотация. В данной статье проанализированы реформы, осуществлённые в Республике Узбекистан в сфере физической культуры и спорта в 2016–2024 годах, нормативно-правовые документы, принятые в данном направлении, а также приоритетные направления и задачи, определённые в этих документах.

Ключевые слова: физическое воспитание, спорт, потенциал, специалист, тренеры, спортсмены, концепция, награда, образование, наука, компетенция.

Abstract. This article analyzes the reforms implemented in the field of physical education and sports in Uzbekistan during the years 2016–2024, the normative-legal documents adopted in this direction, as well as the priority areas and tasks defined in these documents.

Key words: physical education, sport, potential, specialist, trainers, athletes, concept, award, education, science, competence.

2016-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi sport sohasida yangi bosqichga qadam qo'ydi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida qator muhim islohotlar amalga oshirildi. Bu davrda sportni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari qabul qilindi, sport inshootlari yangilandi va sportchilarga qo'shimcha qulayliklar yaratildi. Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish uchun zarur shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish, mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga

Мундарица/оглавление

№	Ному насаб	Номи мақола	Саҳ.
1. 1	Воҳидов Ш.	СУХАНЕ ЧАНД АЗ САРДАБИРИ МАҶАЛЛАҲО	3
2. 2	Abdiyev M. B. Mardiyev B. X.	SHAXSLAR NOMLARINING YUZAGA KELISH OMILLARI	4
3.	Abdujalilova M.O.	AHMAD DONISHNING ISLOHOTCHILIK G'OYALARI VA ULARNING G'ARB MODERNIZMI BILAN TAQQOSLANISHI	8
4.	Abdulxayrov D. P. Baliyeva N. A.	O'ZBEKISTONDA CHET TILINI BILISH DARAJASINI BAHOLASH ME'ZONLARI	12
5.	Abdurayimova M. T.	YANGI O'ZBEKISTONDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDAGI ISLOHATLAR	16
6.	Абдурахмонов М. А.	“СУНАНИ АБУ ДОВУД” АСАРИНИНГ ТАРКИБИЙ ТУЗИЛИШИ ВА ЁЗИЛИШ УСЛУБИДАГИ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАР	19
7.	Азизов Н. П. Умаров З. Р.	ҒАРБИЙ ТУРК ҲОҚОНЛИГИНИНГ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧЛАРИ	24
8.	Ансорова Ф.	МУНОСИБАТИ МИРЗО МУҲАММАДИ САЛИМБЕК НИСБАТ БА ҲАЁТИ СИЁСҲИ ВА ҲАРБИИ АМОРАТИ БУХОРО (АЗ РЎИ АСАРАШ “ТАЪРИХИ САЛИМӢ”)	31
9.	Atajanov M.I.	QADIMGI XORAZM HUDUDIDAGI MARKAZIY SHAHARLAR VA ULARNING QURILISH USHLBLARIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR	34
10.	Atajonova A. J.	BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA MEDIATA'LIM ASOSIDA KOGNITIV FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISH MEKANIZMI	41
11.	Atajonova A. J.	MEDIA TA'LIM VOSITASIDA TALABALARNING KOGNITIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH – ZAMONAVIY TA'LIMNING USTUVOR YO'NALISHI	44
12.	Atajonova M. I.	O'ZBEKCHA MULOQOTDA MAYLNING OHANG ORQALI IFODALANISHI (G'OFUR G'ULOMNING “SHUM BOLA” ASARI MISOLIDA)	48
13.	Ahmedova N. F.	XIVADA YANGI USUL MAKTABLARI VA YOSH ZIYOLILAR FAOLIYATI	52
14.	Babaev M. T.	MAVLONO JALOLIDDIN RUMIY(BALXIY)NING “MASNAVIYI MA'NAVIY” ASARIDAGI “BO'RI BILAN TULKINING ARSLON PANOHIDA OVGA CHIQUISHGANI” HIKOYATI TAHLILI	57
15.	Babayev O. A.	THE FUNCTIONS OF LITERARY TRANSLATION IN THE 21ST CENTURY	62
16.	Усманова Э. Р. Бабаджанов Д. К.	ЗНАК-ОБЕРЕГ: АРХЕТИП СКВОЗЬ ВЕКА (ТРИ СЮЖЕТА)	67
17.	Bekova N J. To'qсанов Q. R. Ibroimova M. N.	“MINHOJ UN - NAJOT” DA NAFS TALQINI	73
18.	Бекова Н. Ж. Солиев Ф. Ф.	“МУҶИЗА” ДЕТЕКТИВ РОМАНИДА ЖИНОЯТ КОНСЕПТИ ВА УНИНГ ТАРБИЯВИЙ-АХЛОҚИЙ ЎРНИ	76
19.	Berdiyev J. P.	XIX – XX ASR BOSHLARIDA QASHQADARYO VOHASI SHAHARLARIDA AHOLI JOYLASHUVI	82
20.	Bobonazarova F.	MUSTAQILLIK YILLARIDA TIBBIYOT TIZIMINI KADRLAR BILAN TA'MINLASH VA MODDIY-TEXNIKA TA'MINOTIDA MUAMMOLAR (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	85